

SHAXS KAMOLOTI UCHUN TARBIYA ISHLAR METODIKASI

Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna

CHirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Maxsus Pedagogika kafedra o'qituvchisi

Tojiahmedova Shirin Tohirjon qizi

CHirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Tiflopedagogika yo'naliш 22/3 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyaviy ishlar metodikasini maqsad va vazifalari , tarixi, asosiy manbalari haqida keltirib o'tiladi. Tarbiyaviy ishlar maxsus metodikasi, tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning tizimi haqida ham malumot berib o'tiladi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются цели и задачи методики воспитательной работы, её история и основные источники. Также представлена информация о специальной методике воспитательной работы и системе организации воспитательной деятельности.

Annotation: This article discusses the goals and objectives of the methodology of educational work, its history, and main sources. Information is also provided on the special methodology of educational work and the system of organizing educational activities.

Tayanch so'zlar: Tarbiya, barkamol avlod, konsepsiya, insonparvarlik, qadriyat,tarbiyachi,milliy,tarbiyachi, tizim

Ключевые слова: воспитание, гармонично развитое поколение, концепция, гуманизм, ценность, воспитатель, национальный, система.

Keywords: education, harmoniously developed generation, concept, humanism, value, educator, national, system.

Hozirgi vaqtida, fan va madaniyatning eng so‘ngi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va metodlarini izlash nihoyatda zarurdir.

Jamiyatda yuksak manaviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimizga, tarixiy an’analaramizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Tarbiyaviy jarayon ongli, mas’uliyatli faoliyat bo‘lib, unda har tomonlama ta’sir ko‘rsatiladi.

Tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o‘stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiya ijtimoiy hodisa bo‘lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o‘ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga ega. Tarbiyashunos olim A. Avloniy o‘zining « Turkiy guliston yoxud axloq » asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta’kidlab shunday degan edi. « Janobi haq insonlarni asl hilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga etkazmoq tarbiya vositasida bo‘ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo‘lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar tabib kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga « yaxshi xulq» degan davoni ichidan, « poklik» degan davoni ustidan berib, katta qilmog‘i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasи tarbiyadir. Axloqimiz binosining go‘zal va chiroqli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi fanining predmeti - bo‘lajak tarbiyachi o‘qituvchilarga kelajak avlodni ma’naviy jihatdan yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash san’atining qirralari, shakl va yo‘llari, hamda bilim, malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy fan bo‘lib, milliy ong va istiqlol mafkurasini shakllantirishga xizmat qiladi

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasining asosiy manbalari:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi
2. Milliy qadriyatlar.

3. Umuminsoniy qadriyatlar.
4. Islom ta’limoti.
- O‘zbek milliy urf-odatlari.
5. Donolar bisoti.
6. O‘zbekiston maktablaridagi ilg‘or tajribalar.
7. Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining tizimi:
8. Pedagogik mahorat va tarbiyachilik san’ati;
9. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning sharqona o‘ziga xosligi va pedagogik ta’sir ko‘rsatish;
10. Tarbiyachilik kasbiga yo‘naltirish;
11. Hozirgi zamon pedagogik texnologiyasi bilan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning tizimi milliy istiqlol talabiga javob beradigan barkamol insonni tarbiyalashga qaratilgandir.

O‘quvchilarga tarbiya berish ularga ta’lim berish bilan mustahkam va yaxlit birgalikda amalga oshiriladi, ammo tarbiyaning o‘z vazifasi, mazmuni, shakl hamda metodlari bor. O‘quv-tarbiyaviy jarayonning uzviylici mifik oldiga qo‘yilgan eng muhim pedagogik qoidalardan biridir. Shuning uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosa o‘quv jarayoni bilan bog‘liq.

Darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarda ilm olishga ishtiyoq uyg‘otish, qobiliyati va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarish, kasb-korga intilish hissini tarbiyalashdan iborat.

Yoshlarning g‘oyaviy-siyosiy ongini shakllantirish, ularda atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda bo‘lish, jonajon Vatanni cheksiz sadoqat bilan sevish, xalqimizning miiliy qadriyatlarini e’zozlash hissini tarkib toptirish –vatanparvarlik tarbiyasining mag‘zi bo‘lmog‘i lozim.

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar shaxsining hissiy-irodaviy xususiyatlarining rivojlanishi uning fikrlash faoliyatini rivojlantirish jarayonida amalga oshiriladi. Rivojlanuvchi organizmni tarbiyalash jarayonida jamoada yashash va ishslash malakasi shakllanadi. Demak, tarbiyachining muxim vazifasi bolalar kollektivi (jamoasi)ni tashkil qilish qisoblanadi. Shuningdek, muxim vazifalardan yana biri rivojlanigida nuqsoni bor bolalarda ijobjiy xislatlarni ishlab chiqarishga imkoniyat tug‘diruvchi kompensator korrektsion vositalarni doimiy ravishda izlashdir. O‘quvchi shaxsini shakllanishisha mustaqillikning va faollikni rivojlantirish asosiy rolni o‘ynay olmaydi, asosiy bo‘lib faollik va tarbiyalanuvchining shaxsiy kuchlari

hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bor o‘quvchida mustaqillik va faollik tarbiyalashga yordam beruvchi quyidagi shartlarni ajratish mumkin;

-bolalarni amaliy faoliyatga qiziqtirish va ularda bu faoliyatga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish;

-topshiriqlarni doimiy ravishda murakkablashtirib borish,

-o‘quvchining faol faoliyatini raqbatlantiruvchi doimiy ta’sir etuvchi pedagogik tizimni yaratish;

O‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, korreksion tarbiyaviy ish natijasida 7-8 sinfga kelib yordamchi maktab o‘quvchilarida o‘zining ijobiy va salbiy his-tuyg‘ularini ongli ravishda boshqara olishlari shakllanadi. Tarbiyaning barcha shakllari jamoa faoliyatini tashkil etishga va unda faol ishtirok etishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bunda hayrixohlik, hurmat, talabchanlik, o‘qituvchi va tarbiyachilarining tarbiyalanuvchilarga bo‘lgan talabining birligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yordamchi maktab o‘qituvchilari normal rivojlanuvchi o‘quvchi o‘zining hayotiy tajribasidan mustaqil zaruriy xulqiy darslarni jalg qila olishi, yordamchi maktab o‘quvchisi o‘zining hissiy va aqliy rivojlanmaganligi, sustligi, mustaqilligi, har doim ham to‘g‘ri xulosa chiqara olmasligini inobatga olishlari kerak. O‘quvchilarining o‘zaro munosabatlari asosan darsdan tashqari faoliyatda yuzaga keladi. Bolalar o‘rtasidagi shaxsiy o‘zaro munosabatlar boshqarilib turilishi mumkin, shuning uchun, ular shaxsining rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash vositasi bo‘lib qo‘llanilishi lozim. Maqsadga erishish uchun guruhda do‘stona aloqa va jamoada ijobiy hissiy kayfiyatni ta’minlash kerak. Ommaviy maktab kabi yordamchi maktab ham tarbiyaga kompleks yondashishni amalga oshiradi, bular aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyalardir. Shaxsning har tomonlama rivojlantirishda tarbiyaviy ishning barcha yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan aqliy tarbiya katta o‘rin egallaydi. Yordamchi maktabdagi aqliy tarbiya haqida gapirganda uning korreksion yo‘nalganligi aqliy rivojlanish dunyoqarashli harakterdagi ma’lum tushunchalar, malaka va ko‘nikmalar, umumta’limiy va mehnat ko‘nikmalarining ma’lum bir qismini o‘zlashtirishga imkon beruvchi darajaga etadi.

Rivojlanishida nuqsoni bor bolalar orasida biz tashabbussiz, bo‘sh, sekinlashgan, odamovi, harakatchan va o‘jar, shilqim, jaqli chiqqan qo‘zg‘aluvchanlarni uchratishimiz mumkin. Bu bolalarga sharoitlar, shifokor, pedagog, oila tomonidan muxim diqqat talab qilinadi. Shunday qilib. yordamchi maktabdagi tarbiyaviy ish natijasi tarbiyaning usul, uslub va vositalarini moslab qo‘llashga pedagog saqlovchi rejimga rioya etishga bog‘liq bo‘ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Tarbiyaviy ishlar metodikasi fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi
2. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish.
3. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yohud axloq”
4. R.Mavlonova” Tarbiyaviy ishlar metodikasi”
5. Y.Rasulova ,D.Maqsudova « Tarbiyaviy ishlar metodikasi ».
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. 1993- y.)
8. M. Temurova. Boshlang‘ich ta’lim jurnali. 9-12- sonlar. 1995- y.)
9. U.Xayyom. Navro‘znama. Toshkent. 1990-y

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg‘ulotlar

Xusnuddinova Zulayxo Xamidullayevna

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Maxsus Pedagogika kafedra o’qituvchisi

Raximova Durdona Xayrullojon qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Tiflopedagogika yo‘nalish 22/3 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz alohida ta‘limga ehtiyojli bolalarning ta‘limidagi huquqlari, ular uchun qanday qarorlar borligi hamda ular uchun tashkillashtirilgan korreksion ish tizimlari haqida bilib olasiz.

Kirish so‘zlari: Korreksiya, ta‘lim tizimi, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, kasbga yo‘naltirish, ritmika, logopediya, mo‘ljal olish.

Аннотация: В этой статье вы узнаете о правах детей с особыми образовательными потребностями в образовании, о том, какие решения существуют для них, а также о системах коррекционной работы, организованных для них.

Вводные слова: коррекция, система воспитания, духовно-нравственные качества, профориентация, ритмика, логопедия, нацеливание.

Annotation: in this article, you will learn about the rights of children with special educational needs in education, what decisions they have for them, as well as about organized correctional work systems for them.